

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan


**2025-1/1
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

MUNDARIJA
BIOLOGIYA FANLARI

Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Aytbayeva D.R., Muydinov A.Z. Oltinsimon qorag'at o'simligining foydali xususiyatlari va o'ziga xos belgilari	5
Atamuratova M.Sh., Narboyev Z.O'. Ullisho'rko'l ko'li sazan balig'ining morfologik xususiyatlari	7
Axmedova M.R., Tuxtaboyeva F.M., Ismoilov I.X. Bug'doy urug'larini laboratoriya sharoitida tuzlar ta'sirida unuvchanligini aniqlash	10
Bekbergenova Z.O., Bawetdinov B.O. Ekologik omillar o'zgarishining Qoraqalpog'iston entomofaunasiga ta'siri	14
Nafasov Z.N., Ortiqov N.S. Eman (quercus L) turkumiga mansub daraxtlar zararkunandalarining tur tarkibi va bioekologiyasi	20
Nurabullayeva G.K., Allamuratova Z.B. Sharqiy Qorateren ko'lining ekologik holatini baholash	23
Po'latova A.R., Maxkamov T.X. Lallelantia royleana (Benth.) Benth ning sutkalik gullash dinamikasi	26
Qalandarova M.K. Iqlim o'zgarishi sharoitida tog' va tog' oldi hududlarining ekologik holatidagi tadrijiy o'zgarishlar	29
Raximov Sh.Sh., Yo'ldashev K.R. Kuzgi bug'doy navlarining barg sathini o'zgarishiga ekologik omillarning ta'siri	32
Sodiqova D.G'., Mardonov Sh.U., Turdiyeva G.I. Denov dendrariysidagi mikromitsetlar bilan zararlangan o'simlik turlarining floristik tahlili	35
Turdimetov Sh.M., Musurmonova M.M. Mirzacho'l vohasi tuproqlarida mikrofloraning o'zgarishi va rivojlanishi	37
Yakubova M.O., Ahmedov Dj.X., Ibragimov X.A., Karimov R.A. G'o'zaning dala unuvchanligiga gumat kaliy stimulyatorining ta'siri	42
Zhou Zhibin, Li Bingwen, Fan Jinglong, Shao Minghao, Abdullayev I., Khasanov Sh., Khudayberganov O., Ashirov M., Iskandarov A. Developing agro-technologies for Cistanche cultivation in the soil and climatic conditions of Khorezm based on Chinese experience	44
Zhou Zhibin, Абдуллаев И., Li Bingwen, Хасанов Ш., Fan Jinglong, Худайберганов О., Shao Minghao, Аширов М., Искандаров А. Выращивание цистанхе в Хорезмском регионе	48
Xujayev O.T., Ravshanov D.G'. Xandon pista zararkunandalarining entomofaglari	53
Авезова У.М. Растительные продукты в рационе ондатры (Ondatra Zibethica) в условиях Хорезмской области Узбекистана	56
Байниязова Г.С., Мамбетуллаева С.М. К вопросу состояния биоразнообразия фауны на территории комплексного (ладшафтного) заказника «Сайгачий»	60
Досжанова Г.Д. Динамические изменения растительного покрова Южного Приаралья под влиянием антропогенных и техногенных факторов	64
Кунысов Б.М., Сафаров А.А. Қорақалпоғистон шароитида туялар (camelus) паразитларига қарши курашишнинг эколого-эпизоотологик асослари	67
Мукумова З.И., Мукумов И.У., Номозова З.Б., Расулова З.А., Атаева Ш.С. Географическое распространение и виды рода Alocasia Neck. (сем. Araceae)	71
Саггарова Ф.Ю., Нишонов Б.Э., Саидмахмудова Л.А. Хоразм вилояти Боғот туманидаги қўлларнинг гидробиологик кўрсаткичлар бўйича экологик ҳолати	74
Турабекова Д.Б., Саломова С.С., Абдуллаева Ф.Б., Хужамшукуров Н.А., Султанова Н.А. Биологическая устойчивость микроорганизмов к некоторым фунгицидам	80
Халбекова Х.У., Ташмухамедова Ш.С. Получение асептических проростков в условиях in vitro галофитов, относящихся к семейству chenopodiaceae	83
QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI	
Alloberganova Z.B., Sulstonov M.F., Aminov M.R. Xorazm viloyati sharoitida yumshoq bug'doyning turli respublikalardan keltirilgan nav namunalarning qishga chidamliligi	88

burchak. Mevalari to'q qora, yaltiroq, dumaloq. Urug'lari mayda, och jigarrang rangda. Ta'mi nordon-shirin. Bir tupi 5-6 kg xosil beradi. Nav universal.[8.70-71-bet]



3-rasm. Podarok Ariadne navi mevasi

Muhabbat- S.I.Yagudinaning O'zbekiston krupnolodnaya navli seleksiya ekinlaridan seleksiya yo'li bilan yetishtirilgan. Buta kuchli, o'rta yoyilgan. Bir yillik novdalari to'q jigarrang, o'sgan. Muhabbat o'rtapishar navlar guruhiga kiradi. U aprel oyining boshidan oxirgi o'n kunligigacha gullaydi.[9]



4- rasm Muhabbat navi mevasi

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, oltinsimon qorag'at o'zining tezpisharligi, serxosilligi, tibbiyotda va tabobatda qo'llanilishi va dorivorligi va o'zgacha ta'mi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, qorag'at navlarinig O'zbekiston iqlim sharoitiga moslasha olishi va tuproq iqlim sharoitlariga aloxida talabchanligi ham bu o'simlikning aloxida ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Bundan tashqari tobora rivojlanib borayotgan diyorimizni yanada ko'kalamzorlashtirish, yashil makon barpo etish, havo haroratini mo'tadillashtirish va shahar ko'rkiga yanada chiroy qo'shish maqsadida manzarali daraxt va butalarni ekish, ularni ko'paytirish va toza xavoni ta'minlash so'nggi yillardagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PQ-4246-son. "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori.-Toshkent, 2019 yil, 20 mart.
2. PQ-52-sonli "Meva-sabzavotchili sohasinidavlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Qarori. – Toshkent, 2021 yil 15 yanvar.
3. PF-46-son. "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni.-Toshkent, 2021 yil 30-dekabr.
4. Yagudina S.I. - Smarodina. Tashkent. Izd-vo "Fan" 1976. – 120 s
5. Savilyeva L.S. Биологические свойства смородины золотистой (*Ribes aureum* Pursh) в защитных насаждениях на каштановых почвах Сталинградской области. Avtorefer.dissert. kand.s.x.. nauk.– M., 1955. 14
6. Pavlova N.M. - Smarodina. L.,Selxoziz. 1931. – 165 s

UO'K 597.554.3

ULLISHO'RKO'L KO'LI SAZAN BALIG'INING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.Sh. Atamuratova, kat.i.x., PhD, O'zR FA Zoologiya instituti, Toshkent

Z.O'. Narboyev, mustaqil izlanuvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annatosiya. Ushbu maqolada Ullisho'rko'l ko'lida keng tarqalgan, asosiy ovlanadigan tur bo'lgan Sazan - (*Cyprinus carpio*) balig'ining mormometrik belgilari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ullisho'rko'l, ko'l, ovlanadigan tur, baliq, sazan, morfometrik belgi, statistik tahlil.

Аннотация. В этой статье приведены данные по морфометрическим признакам рыбы карпа (*Cyprinus carpio*), распространенного в озере Уллишуркуль, основного промыслового вида.

Ключевые слова: Уллишуркул, озеро, промысловый вид, рыба, sazan, морфометрический признак, статистический анализ.

Abstract. This article provides information on the morphometric signs of the Carp - (*Cyprinus carpio*) whale, a common, primary prey species in Lake Ullishurkul.

Key words: Ullishurkul, lake, commercial species, fish, carp, morphometric feature, statistical analysis.


Kirish. Ullisho'rko'l ko'li - Xorazm viloyati hududida joylashgan eng katta ko'l. Xiva shahridan 14 km janubi sharqda va Chig'irchi qishlog'idan 6 km janubda joylashgan. Ko'lining janubiy qismi Turkmaniston hududiga kirib borgan. Ullisho'rko'l ko'lining umumiy maydoni 14,8 km², balandligi 86 m ko'l shimolidan janubga tomon uzunligi 16 km, eni 4 km ni tashkil qiladi. Ullisho'rko'l ko'li asosan kollektor suvlari va shimoliy qismidagi dalalarni yuvishdan oqib keladigan tashlama suvlardan to'yinadi. Ullisho'rko'l ko'lining suvi sho'r bo'lib, rekreatsiya ahamiyati mavjud. Hozirda ushbu ko'lda asosiy baliqchilik xo'jaligi keng faoliyat ko'rsatadi.

Sazan - *Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758) - Tabiiy areali Yevropa, Markaziy Osiyo, Sibir, Uzoq Sharq, Xitoy, O'zbekistonning barcha tekislik suv havzalarida uchraydi. Asosan 3-4 yoshida voyaga yetadi. Sazan asosiy ovlanadigan baliq turi bo'lib, asosan, suvosti umurtqasizlari, suv o'simliklari, zooplankton organizmlar bilan oziqlanadi.

Material va metodika. Sazan - (*Cyprinus carpio*) baliq'i bo'yicha tadqiqot ishlari 2024-yilning iyul-avgust oylarida Xorazm viloyati hududida joylashgan Ullisho'rko'l ko'lida olib borildi. Baliqlarning tur tarkibi aniqlashda [1,2,3] qo'llanmalari bo'yicha aniqlandi. Materiallarni yig'ish ishlari umumiy qabul qilingan ixtiologik metodlar asosida amalga oshirildi [3]. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko'lining pastki qismidan Sazan - (*Cyprinus carpio*) baliq turidan 13 ta namuna yig'ildi. Baliqlarning uzunligi va og'irligi o'lchandi va morfometrik belgilari aniqlandi. [3] Morfometrik belgilarni statistik tahlil qilishda ularning o'lchamlari chegaralar (*Lim*) o'rtacha (*M*) va xatoligi (*m*) o'rtacha kvadratik og'ish (σ) dispersiya variatsiya koefitsienti $Cv\%$ va belgilar o'rtasidagi farqlar hisoblab chiqildi. [4]

Tadqiqot olib borgan hududda baliq namunalari ushlangan joyi aniqlanib, koordinata nuqtalari belgilandi.

Turning nomi	Namuna olingan hudud	Koordinata nuqtalari
<i>Cyprinus carpio</i>	Ullisho'rko'l	41°15'41.28"N 60°30'12.08"E
		41°15'08.86"N 60°30'27.2"E.
		41°15'53.64"N 60°29'35.59"E
		41°15'11.33"N 60°29'12.45"E



1- rasm. Ullisho'rko'l ko'lidan ixtiologik namunalar olingan nuqtalar.

Natijalar va muhokamalar

Ullisho'rko'l ko'li *Cyprinus carpio* - baliq'ining elka suzgich qanotidagi shulalar soni III-20, anal suzgich qanotidagi shulalar soni III-6. Yon chizig'ida tangachalari soni 38 ta tashkil etdi.

Ullisho'rko'l ko'lidagi sazan baliq'ining morfologik belgilari ko'rsatkichlari (n=13)

Belgilari	Lim.	M±m	σ	S ²	Cv %
Tana uzunligiga nisbatan foiz hisobida (l)					
<i>l, sm</i>	192±356	279,15±15,69	56,58	3201,81	20,27
<i>c</i>	81,82±90,46	84,07±0,64	2,29	5,25	2,73
<i>ao</i>	7,24±9,77	8,56±0,24	0,86	0,74	10,06
<i>o</i>	2,25±4,21	3,34±0,17	0,61	0,37	18,32
<i>po</i>	8,22±12,37	10,92±0,37	1,32	1,74	12,08
<i>hc</i>	12,83±18,75	16,98±0,53	1,90	3,61	11,19
<i>io</i>	6,25±10,28	8,5±0,32	1,16	1,34	13,62
<i>H</i>	17,43±30,7	24,66±1,11	4,01	16,11	16,28
<i>h</i>	6,58±11,16	9,78±0,36	1,29	1,67	13,20
<i>aD</i>	28,29±42,06	38,84±1,26	4,53	20,54	11,67
<i>pD</i>	8,99±17,21	12,23±0,78	2,81	7,91	22,99
<i>pl</i>	10,03±13,47	11,74±0,35	1,25	1,55	10,61
<i>lD</i>	21,71±35,19	31,11±1,2	4,33	18,79	13,93
<i>hD</i>	7,3±12,65	10,79±0,45	1,63	2,64	15,07
<i>lA</i>	5,59±8,37	7,24±0,25	0,89	0,79	12,24
<i>hA</i>	7,02±13,02	11,04±0,57	2,05	4,22	18,59
<i>lP</i>	15,38±22,58	18,4±0,49	1,76	3,09	9,55
<i>lV</i>	13,79±16,92	15,25±0,29	1,04	1,07	6,79
<i>P-V</i>	10,96±19,59	17,49±0,77	2,77	7,65	15,81
<i>V-A</i>	14,89±21,86	19,71±0,59	2,13	4,53	10,80
Bosh uzunligiga nisbatan foiz hisobida (c)					
<i>ao/c</i>	8±11,8	10,2±0,32	1,14	1,30	11,19
<i>o/c</i>	2,55±5,08	3,98±0,22	0,78	0,62	19,70
<i>po/c</i>	9,09±14,61	13,03±0,5	1,81	3,26	13,86
<i>hc/c</i>	14,18±22,47	20,25±0,73	2,61	6,84	12,91
<i>io/c</i>	6,91±12,43	10,14±0,43	1,55	2,41	15,33

Izoh: Meristik va plastik belgilarni ifodalashda ularning quyidagi qisqartmalardan foydalanildi. D - yelka suzgich qanoti, A- anal suzgich qanoti, L- baliq tanasining uzunligi, c- boshning uzunligi, ao- tumshuqning uzunligi, o- ko'zning diametri, H- tananing eng katta balandligi, h- dum o'qining balandligi, hD- yelka suzgich balandligi, aD- antedorsal masofa, pD- postdorsal masofa, hA- anal suzgichi balandligi, lA- anal suzgich asosining uzunligi, lP - ko'krak suzgichining uzunligi, lV - qorin suzgichining uzunligi, PV - ko'krak va qorin suzgichi oralig'idagi masofa, VA- qorin va anal suzgichi oralig'idagi masofa.

Xulosalar. Sazan - (*Cyprinus carpio*) balig'ining variatsiya koeffitsienti -2,73-22,99 foizigacha (o'rtacha 10,61 %) o'zgarib turadi. Shundan *io*, *ao*, *H*., belgilar yuqori 22,99 o'zgaruvchan *o*, *lD*, *hA*, *lP*, *lV*, *PV*, *VA* qolgan belgilar *c*, *hc*, *io*, *h*, *aD*, *pD*, *hD*, *lA*, kam 2,73% o'zgaruvchanlikka ega ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Берг Л.С., 1949. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. – М.-Л.: Изд. АН СССР, Часть 2. – С. 467-925.
2. Mirabdullayev I.M., Mirzayev U.T. va boshq. O'zbekiston va qo'shni hududlar baliqlari aniqlagichi. – Toshkent, 2011. -B.33-34.
3. Mirabdullayev I.M. Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O'zbekiston baliqlarining xilma – xilligi. -Toshkent, 2020.- B. 46.
4. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. 4-е изд. – М.: Пищевая промышленность, 1966. – 376 с.
5. Лакин Г.Ф. Биометрия –М.: Высш.шк., 1990.-352с.

UO'K 581.522.4:632.122:633.111.1

BUG'DOY URUG'LARINI LABORATORIYA SHAROITIDA TUZLAR TA'SIRIDA UNUVCHANLIGINI ANIQLASH

M.R.Axmedova, magistr, Andijon davlat universiteti, Andijon
F.M.Tuxtaboyeva, dotsent, Andijon davlat universiteti, Andijon
I.X.Ismoilov, o'qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayrim bug'doy navlarini (Andijon markaz, Vexa) laboratoriya sharoitida turli xildagi tuzlar ta'sirida undirish va ularning sho'rga chidamliliklari haqida ma'lumot keltririlgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishda tuproq unumdorligini oshirish hamda sho'rlanishni oldini olish borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: don sifati, yumshoq bug'doy, NaCl, MgSO₄ tuzlari, poya, oqsil, kleykovina.

Аннотация. В данной статье приведены сведения об урожайности некоторых сортов пшеницы (Андижан Марказ, Веха) под воздействием различных солей в лабораторных условиях и их толерантности к соли. Кроме того, дается ценная информация по повышению плодородия почвы и предотвращению засоления при посадке сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: качество зерна, мягкая пшеница, соли NaCl, MgSO₄, стебель, белок, клейковина.

Abstract. In this article, information is provided about the yield of some wheat varieties (Andijon Markaz, Vekha) under the influence of various salts in laboratory conditions and their tolerance to salt. In addition, valuable information is provided on increasing soil fertility and preventing salinity when planting agricultural crops.

Key words: grain quality, soft wheat, NaCl, MgSO₄ salts, stem, protein, gluten.

Bug'doyning (*triticum*) 22 turi mavjud bo'lib, shundan bizda ham, chet mamlakatlarda ham asosan ikki turi: yumshoq va qattiq bug'doy keng tarqalgan. Qattiq bug'doy ham yumshoq bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni eg'allaydi. Doni yirik oq rangda, yaltiroq, tarkibida oqsil miqdori 18-20% gacha bo'lishi mumkin. Qattiq bug'doy doni kuchli bug'doylar turiga kiradi. Undan bolalar ovqati, makaron, pechenya tayyorlashda va boshqa unlarni yaxshilovchi sifatida foydalaniladi. Qattiq bug'doy asosan bahorgi. qiltiqli, boshqachalari boshqada zich joylashgan bo'ladi. Ishlab chiqarishda ekiladigan yana bir tur bug'doy turg'idum bug'doyi, ayrim belgilari bo'yicha qattiq bug'doyga yaqin turadi. Zakavkazye respublikalari va markaziy Osiyoda bug'doyning mahalliy navlari orasida uchraydi. Sug'oriladigan yerlarda o'sadigan bu bug'doy issiq iqlimga yaxshi moslashadi. Uning shoxlangan boshqali formalari bo'lib, ular bir paytlar olimlar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Bugungi kunda turg'idum turidan yaratilgan navlar hozirgi kunda Misr Arab Respublikasida, Iroqda ko'plab ekilmoqda deyiladi [4].

Hozirgi davrda Respublikada ekilayotgan xorijdan keltirilgan va respublikada yaratilgan kuzgi bug'doy mahalliy navlari o'zlarining yuqori hosildorligi va oqsil saqlash xususiyatlariga ega. Biroq navlarning bu hususiyatlari maxalliy noqulay tuproq -iqlim sharoitlari ta'sirida kuchli o'zgarib turadi. Chunki O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarda yetishtirilayotgan kuzgi bug'doy tarkibidagi oqsil